

**"TEXNIK MEXANIKA" FANINI O`QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
MUAMMOLARI VA ULARNING NAZARIY-AMALIY ECHIMLARI**

Igamberdiev Xolmurod Xaydarovich

Jizzax politexnika instituti,

"Umumtexnika fanlari" kafedrasi,
texnika fanlari nomzodi.dotsent.

E-mail:igamberdiyev1953@mail.ru

Soatov Anvar Maxkamovich

Jizzax politexnika instituti,

"Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedrasi katta o'qituvchisi.

E-mail:a.sootov62@mail.ru

ANNOTATSIYA: "Texnik mexanika" fani har bir soha bilan uzviy bog'lanib, unga bo'lgan ehtiyoj tobora o'shib bormoqda. Quyidagi maqolada har bir talabaning amaliy-labaratoriya ishlarini mutlaqo mustaqil va yakka ish joyida alohiqa topshiriq asosida bajarishiga erishish yo'llarini ko'rsatganmiz.

KALIT SO'ZLAR: Texnik mexanika, informatika, amaliy-labaratoriya, murakkab mashinalar, qurilma, kichik o'lchamli qurilmalar, loyiha, universal qurilma, modernizatsiya.

Ma'lumki texnik mexanika o`z ichiga nazariy mexanika, mashina va mexanizmlar nazaryasi, materiallar qarshiligi, mashina detalalri kabi fanlarga oid bilimlarni oladi. Mutaxassislarining amaliy tayyorgarligini yaxshilash jarayonida har xil amaliy –labaratoriya mashg`ulotlari turi muhum rol o`ynaydi. Loyihada texnik mexanika fanini o`qitish sifatini yaxshilashning nazariy va amaliy asoslari kichik o'lchamli universal qurilmalardan foydalanish misolida ishlab chiqiladi. Bu bilan biz har bir talabaning amaliy-labaratoriya ishlarini mutlaqo mustaqil va yakka ish joyida alohiqa topshiriq asosida bajarishiga erishishni nazarda tutganmiz.

Labaratoriya va amaliy ishlarni kichik o'lchamli universal qurilmalarda o'tkazish usuli eng samarali xisoblanadi, bu labaratoriya ishlarini bajarishdagi mustaqilligi, labaratoriya xonasini tozaligini ta'minlashdan tashqari yana ularni ma'suliyatli va ishni tartibli bajarishga o'rgatadi, shuningdek xar bir talabaning tajribalar o'tkazishi sonining ham ancha ko`p bo'lishiga imkoniyat beradi.[1,2]

Texnika yo`nalishidagi ko`pchilik o`quv yurtlarida texnik mexanikadan labaratoriya ishlari har xil katta o'lchamli va murakkab mashinalar (UMR-2 mayatnikli kopyorlar,IIT)da(rasm-1) va R-20, R-30, KM-50-1, SM-4A kabi qurilmalarda bajariladi.[3] Bunday har xil katta gabaritli o'lchamdagи qurilmalar ko`p joy egallaydi, ularni o'rnatish uchun maxsus fundamentallar talab qiladi. Bunday labaratoriya ishlarini bajarish uchun aloxida mustaqil labaratoriya ishini bajarishning imkonи labaratoriya ishini bajarishda talaba bajaradi, qolganlar esa oddiy passiv kuzatuvchi bo`lib ishtirok etadi. Shuningdek, bunday katta gabaritli mashina jixozlarini sotib olib o'rnatishga katta mablag` va joy talab etiladi. Shu manoda kichik o'lchamli universal o`quv-labaratoriya qurilmalar kompleksini ishlab chiqish va yaratish muhum pedagogic ahamiyatga ega. Buni kichik o'lchamli qurilmalarda har bir talaba individual topshiriq asosida labaratoriya ishlarini bajarish imkoniyatiga ega bo`lishi, bilimining chuqur, mustahkam va samaralilikka ega bo`lishi bilan asoslash mumkin.[4]

Mutaxassislarining amaliy tayyorgarligini yaxshilash jarayonida har xil turdagи amaliy-labaratoriya ishlarini bajarish muhum rol o`ynaydi. Chunki amaliy – labaratoriya ishlari nazariy



bilimlarni mustahkam o`zlashtirishga yordam beradi, ijodkorlikka o`rgatadi. Loyihada ana shu muammo texnik mexanikani o`qitishda talabalarning chuqur va mustahkam bilim olishiga qanday erishish mumkin degan savolga javob echimining metodikasi haqidagi tavsiyalar bayon qilinadi. Yuqoridagi muammoning ilmiy echimi va dolzarbli shundaki talabalar kichik qurilmalarda murakkab qurilmaga nisbatan o`zgarishni ma`ruzada olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan kengroq bog`lab chuqurlashtiradi.



Rasm-1. Mayatnikli kopyor.

Loyihada talabalarning bilish faoliyatini jadalashtirish masalasi nafaqat amaliy-labaratoriya mashg`ulotlarida va hatto ma`ruza darslarida ham ko`rgazmali namoyish orqali oshirishni nazarda tutadi. Shuningdek bunday kichik o`lchamli universal o`quv-labaratoriya qurilmalarini talabalar kuchi bilan tegishli fan to`garaklarida va o`quv dargohi o`quv ustahonalarida qo`lda tayyorlashi mumkin.[5]

Loyihaning ilmiy yangiligi shundaki, biz tomonimizdan qo`lda yasalgan kichik o`lchamli universal laboratoriya qurilmalarida labaratoriya ishlarini bajarish pedagogic samaradorligini aniqlash bo`yicha olib borgan pedagogic eksperimentlarimiz yakuniga ko`ra tavsiya qilinadigan qurilmalardan foydalanish talabalarning o`zlashtirish darajasi 94,5 foizni, murakkab qurilmalarda esa u 79,1 foizni tashkil etadi. Shuningdek kichik o`lchamli qurilmalardan foydalanilgan talabalar, mavjud katta o`lchamli mashinalardagiga ko`ra tajriba –eksperimentni 20 daqiqa kam vaqt sarflab bajarib ulgurishdir.

O`tkazilgan dastlabki tajribalarimizga ko`ra bunday universal kichik o`lchamli universal qurilmalardan foydalanish, labaratoriya ishlarini avvalgi olcham jihozlarga nisbatan har tomonlama afzalliliklarga ega ekanligini ko`rsatdi. Shu ma`noda bunday universal ixcham oquv-labaratoriya qurilmalarini markazlashgan holda seriyalab ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deyish mumkin, bu bilan texnik mexanikadan o`quv –laboratoriylarini modernizatsiyalash sezilarli tezlashgan bo`lar edi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Абдуганиев А. и др. МЕЖПРЕДМЕТНЫЕ СВЯЗИ ЧЕРЧЕНИЯ С ГЕОМЕТРИЕЙ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР АКТИВИЗАЦИИ МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ //Передовые научно-технические и социально-гуманитарные проекты в современной науке. – 2018. – С. 85-87.
2. Соатов А. М., Мухитдинов А. А., Абдуллаев У. УЧЕБНО ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ЗАДАЧИ В КРУЖКОВЫХ РАБОТАХ //Передовые инновационные разработки.

Перспективы и опыт использования, проблемы внедрения в производство. – 2019. – С. 200-202.

3. Игамбердиев Х. Х., Соатов А. М. ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТАТИЧЕСКИХ И ДИНАМИЧЕСКИХ КОЭФФИЦИЕНТОВ ТРЕНИЯ ЗЕЛЕНЦОВОГО КЕНАФА //ИЛМИЙ МАҚОЛАЛАР ТҮПЛАМИ. – 2022. – С. 308.

4. Игамбердиев Х. Х., Соатов А. М. Коэффициент трения скольжения листьев и коробочек зеленцового кенафа //ВОПРОСЫ ТЕХНИЧЕСКИХ И ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИХ НАУК В СВЕТЕ СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. – С. 50-53.

5. Абдуганиев А. и др. Отбор объектов для практических работ студентов по черчению //Молодой ученый. – 2016. – №. 2. – С. 113-117.



LOBACHEVSKY
UNIVERSITY

